

Nozimaxon IMOMOVA,

Farg'ona davlat universiteti "Sotsiologiya" kafedrasida v.b.dotsenti, sotsiologiya yo'nalishi bo'yicha f.f.d.(PhD)

F.F.D. professor M.Mamatov taqrizi asosida

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF REGULATING LABOR MIGRATION IN OUR SOCIETY

Annotation

This article analyzes the social aspect of the formation of the main elements of the state policy system in the structure and movement of labor migration processes, mainly for the development of the state policy on the regulation of labor migration processes and the improvement of the legal protection of labor migrants and their family members. Also, new tasks involving labor migration processes involving various state bodies and institutions, including international organizations in the field of migration, non-governmental and public structures, were proposed, in which actions related to labor migration are carried out by the recipient state of labor migrants and their international a proposal aimed at improving international agreements between the donor countries providing the field is presented.

At this point, the article presents the conclusions obtained as a result of sociological research conducted by the author and comparative analysis through official data.

Key words: Labor migration, trend, international labor market, country, salary, standard of living, need.

ОСОБЕННОСТИ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В НАШЕМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье анализируется социальный аспект формирования основных элементов системы государственной политики в структуре и движении процессов трудовой миграции, главным образом для развития государственной политики по регулированию процессов трудовой миграции и совершенствования правовой защиты трудовых мигрантов и членов их семей. Также предложены новые задачи по трудовой миграции с участием различных государственных органов и учреждений, в том числе международных организаций в сфере миграции, неправительственных и общественных структур, при которых действия, связанные с трудовой миграцией, осуществляются государством-реципиентом рабочей силы. Представлено предложение, направленное на совершенствование международных соглашений между странами-донорами, предоставляющими данную сферу.

На данный момент в статье представлены выводы, полученные в результате проведенного автором социологического исследования и сравнительного анализа на основе официальных данных.

Ключевые слова: Трудовая миграция, тенденция, международный рынок труда, страна, заработная плата, уровень жизни, потребность.

JAMIYATIMIZDA MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish va mehnat migranlari va ularning oila a'zolarini qonuniy ximoyasini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish uchun asosan mehnat migratsion jarayonlarni tuzilishi va harakatlanishida davlat siyosati tizimining asosiy elementlarini shakllanishini sotsial jixati tahlil qilingan. Shuningdek, mehnat migratsiyasi jarayonlarini turli davlat organlari va institutlarini, shu jumladan, migratsiya sohasidagi xalqaro tashkilotlar, nodavlat va jamoat tuzilmalarini jalb qiladigan yangi vazifalar taklif qilingan bo'lib, unda mehnat migratsiyasi bilan bog'liq xarakterlar mehnat muhojirlarini kabul qiluvchi respient davlat hamda ularni xalkaro maydonga taqdim etuvchi donor mamlakatlar o'rtasidagi halqaro bitimlarni takomillashtirishga qaratilgan taklif bayon qilingan.

Shu o'rinda, maqolada muallif tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar va rasmiy ma'lumotlar orqali qiyosiy taxlil qilish natijasida olingan xulosalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: Mehnat migratsiyasi, tendensiya, halqaro mehnat bozori, mamlakat, ish haqqi, turmush daraja, ehtiyoj.

Kirish. Zamonaviy dunyoda globallashuv tendensiyalari e r sayyorasida yashayotgan xar bir inson xayoti, turmush tarziga shu o'rinda, migratsiya jarayonlari mintaqaviy xavfsizligiga o'z ta'sirini ko'rsatmokka.

Shunga ko'ra migratsiya jarayonlarini tartibga solish va mehnat migranlari va ularning oila a'zolarini qonuniy ximoyasini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish uchun asosan mehnat migratsion jarayonlarni tuzilishi va harakatlanishida davlat boshvaruv mehanizmining asosiy elementlarini shakllanishini tahlil qilishni talab etadi.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlari migratsiya sohasidagi migratsion jarayonlar va ularning xarakterlanishi masalalarida uchraydigan ayrim holatlarni qayta ko'rib chiqishni taqazo etmoqda.

Mehnat migratsiyasi bilan bog'liq xarakterlar ayrim davlatlar mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi respient davlatga yoki bo'lmasam ularni xalkaro maydonga takdim etuvchi donor mamlakatga, shuningdek bir vaqtning o'zida xam respient, xam donor mamlakatga aylanib bormoqda. Shuni aniq ayta olamizki, mehnat migratsiyasi jarayoni xech kaysi bir davlat chetda koldirgani yo'q.

Shu o'rinda, axoli mehnat migratsiyasining ta'sirini jamiyatimizdagi ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy jarayonlarga ta'sirini kuzatishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mamlakatimiz mustakillikka erishgan dastlabki yillarida ishsizlik, iktisodiy kiyinchiliklar, ijtimoiy himoya tizimidagi kamchiliklar kabi muammolar tufayli respublikamizda mehnat migratsiyasiga ko'plab iktisodiy kiyinchiliklar, ijtimoiy muammolarning e chimlaridan biri sifatida qaralgan. Buning natijasida bugungi kunga kelib O'zbekiston xalqaro miqyosda migrantlarni takdim etuvchi, e tkazib beruchi donor mamlakatga aylandi.

Respublika taqdim qilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilning 1 iyul holatiga respublika bo'yicha doimiy yashovchi aholi soni 36 372,3 ming kishini tashkil etadi. Bu qiymat 2022 yil mos davriga nisbatan 2,2 foizga ko'paygan[1]. Demak, bugungi kunda aholi sonini ortib borishi mamlakatda mehnat migratsiyasi ulushining ko'payib borishiga turki bo'luvchi asosiy omil sifatida qaralib ushbu jarayon davlat tomonidan tartibga solinib, uni ilmiy tahlil qilish talab etiladi.

Shunday ekan, mamlakatimiz sotsiolog olimlaridan M.Bekmurodov olib borgan tadqiqotida migrantlar, diasporalar va mehnat migratsiyasi jarayonlarining tartibga solinmasligi jamiyatda ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi ilmiy asoslangan[2]. Shu o'rinda, F.Parmanov[3] migratsiyajarayonlarining avj olishi natijasida ijtimoiy-gumanitar fanlar tarmog'ida «Migrant psixologiyasi» ilmiy atamasi shakllanganligini o'z tadqiqotlarida nazariy asoslagan. Professor B.Umurzoqovning ilmiy maqolalarida «Mamlakatda aholi bandligi va yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonlari barqaror holatga ega bo'lmas ekan, mehnat migratsiyasi davom etishdan to'xtamaydi»[4], degan fikrlariga sotsiologik jihatdan migratsiya masalalarini tartibga solish mehnat sharoitlari holatini aniqlash, o'zaro sotsial munosabatlarni o'rganish va ularning huquqiy himoyalash tomonlarini takomillashtirish tizimli joriy qilish zaruriyati tug'ildi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi xuzuridagi Tashki mehnat migratsiyasi agentligining ma'lumotiga kura, 2022 yilgi ma'lumotga ko'ra xorij davlatida ishlayotgan o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni 2 mln.dan ortib ketganligini bildirib, ularning 1,5 mln nafari Rossiyada faoliyat yuritayotgani aytilgan[5]. Shu o'rinda «Kazinform» xalqaro axborot agentligi Mehnat vazirligi matbuot xizmati bergan ma'lumotga ko'ra, 2022 yil holatida Qozog'istonda jami 16 ming 424 xorijlik mehnat muhojirlari mahalliy ijro organlari ruxsati bilan mehnat faoliyatini olib bormoqda[6], shundan o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni bo'yicha uchinchi o'rinda ekanligi ma'lum bo'ldi

Muhokama va natijalar. Yuqorida keltirilgan, rasmiy ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonning mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolarning umumiy soni deyarli 13,3 foiz, doimiy o'rtacha aholining esa deyarli 5,7 foizi esa mehnat muhojiri sifatida mamlakatni tark etgan deb hisoblaymiz. Umumani mamlakatni tark etgan fuqarolarni aypim qismi ta'lim, davolanish kabi maqsadlarda harakatlanadi, ya'ni boshqa davlatda kamida uch oy istiqomat qilgan insonlar xam migrant sifatida tartibga solinadi. Ayrim holatlarni ham alohida ko'rsatib o'tish kerakki, ba'zi o'zbekistonlik migrantlar illegal migratsiyani odir etib (immigratsion tartiblarga zid holatda) yoki migratsiya maqsadini o'zgartirgan holatda ko'rsatib (masalan, turizm, shaxsiy maqsadlar kabi) mamlakatni tark etishadi.

Achinarlisi shundaki, O'zbekistonda haligacha migratsiya jarayonlarini samarali tartibga solishga qaratilgan alohida strategik hujjatning mavjud emasligi yoki tashki migrantlarning aniq miqdorini tahlil qilgan ma'lumotlar bazasi yoki statistik hisobotlar mavjud emas. So'ngi yillarda mamlakat hukumati tomonidan migratsion jarayonlarni, asosan mehnat migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan bir qancha qarorlar qabul qilindi. Albatta, bu qarorlar migratsiyaning ayrim jihatlarini tartibga solish imkonini beradi, ammo boshqa muhim omillarni ham ko'zdan qochirish kerak, masalan, qochoqlar masalalarini hal qilish, xorijiy muhojirlar soni va ular uchun aniq kvotalarni belgilanishi, shuningdek ularni O'zbekistondagi mehnat faoliyati, mamlakatga chet eldan qaytgan mehnat migrantlarining moslashuvi va reintegratsiya qilinishi, sog'liqni saqlash, migrant oilalariga ijtimoiy ko'mak berish va mavjud muommolarini hal etilishi, mehnat migratsiyasi oqibatida kelib chiqadigan salbiy omillarni kamaytirilishi va migrantlar xavfsizligi kabi masalalar chetda qolib ketmoqda.

Yangi O'zbekistonda siyosiy jarayonida mamlakatimizda migratsiya sohasini tartibga solishning qonuniy normalarga asoslangan xukukiy-me'yoriy tizimi yaratilib, ushbu tizimning asosida mehnat migratsiyasi jarayonini amalga oshirishdagi tartib intizom va ularning ahloqiy majburiyatlari, chet elga ketayotgan shaxslarning monomarkazlar tomonidan tillarni o'qitilishi, malakaviy savodxonligini oshirishi hamda chet eldan qaytib kelayotgan fuqarolarning ish bilan ta'minlanishi kabi masalalarga alohida e'tibor karatilib kelinib, ammo ayrim muommoli masalar ustida yanada nazoratni kuchaytirish kabi majburiyatlarni yuklanmoqda.

Davlat xukumati tomonidan qonuniy tartibda belgilangan xujjatlar sirasiga 2019 yil 20 avgustdagi PF-5785-sonli «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida»gi Prezident farmoni, 2018 yil 5 iyuldagi PQ-3839-sonli «O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanadi takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 15 sentabrdagi PQ-4829-sonli «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 30 iyuldagi PQ-5205-sonli «Horijsiz tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021 yil 11 avgustdagi PQ-5220-sonli ««Vatandoshlar» jamoat fondini tashkil etish to'g'risida»gi Prezident qarorlarini asos qilishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi prazidenti qarorlari va farmonlariga binoan, davlatimiz siyosatidagi islohotlar va navbatdagi institutsional islohatning yangi tuzilmalar faoliyati yo'nalishlarini aniq funksional tahlil qilish bilan birga, ularning har tomonlama sifatli va yuqori natijaga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligini mustahkamlash, zimmasidagi vazifalarni samarali bajaradigan, hususan, mamlakat aholisi manfaatlarini ko'zlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilishi talab etiladi.

Olib borilgan izlanishlarimiz, O'zbekiston Respublikasida davlat siyosati va mehnat migratsiyani tartibga solish va boshqarish samaradorligini tahlil qilishimiz natijasiga ko'ra quyidagi muammolar aniqlandi:

ichki va tashqi migratsiya, majburiy mehnat migratsiyasi, qochoqlar masalasi kabi muommolarni kamaytirishga va tartibga solishda qonunchilik bazasida qonun me'yorlarini to'liq emasligi;

tashqi migratsiya, shuningdek mehnat migratsiyasi jarayonlarining turli parametrlari, ko'rsatkichlari bo'yicha to'liq statistik ma'lumotlarning yo'qligi;

migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo'yicha aniq modul, dastur va chora-tadbirlarning to'liq emasligi;

mehnat muhojirligida yurgan fuqarolarni muammolarini hal qilishda davlat organlari bilan nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi sust ekanligi;

Yuqorida aniqlangan muommolarni o'rganish bilan birga mamlakatda mehnat migratsiyasini keltirib chiqaruvchi omillarni ko'rsatib o'tamiz.

O'ZBEKISTONDA AHOLI MEHNAT MIGRATSIYASIGA TURTKI

BO'LUVCHI ASOSIY OMILLAR

3.3.1. Jadval

TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (kuchaytiruvchi)	TASHQI OMILLAR	ICHKI OMILLAR
	rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning yuqoriligi	ishchi kuchi eksportini rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlari mavjudligi
	xorijiy mamlakatlarda ish haqining yuqori darajasi	maoshning nisbatan pastligi

	xorijiy davlatlarga kirish uchun viza berish tartiblarini soddalashtirilishi	ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi
	xorijiy davlatlarning mehnat bozorlarini erkinligi	mehnat bozorida talabning pastligi
	ratsipient mamlakatning mehnat muhojirlariga nisbatan munosabatining yaxshiligi	mexnat faoliyatidagi adolatsizlik
	xorijiy mamlakatlardagi etnik diasporalarning rivojlanishi va samaradorligi	etnik va siyosiy nizolar tufayli qochoqlar
	qabul qiluvchi mamlakatlar bilan etkazib beruvchi davlatning mentaliteti, madaniyati, an'analarining o'xshashligi	moliyaviy ehtiyojlar bilan bog'liq og'ir oilaviy sharoitlar (kasallik, uy sotib olish va boshqalar)
	Ish joylari sharoitlarining qulayligi	tadbirkorlik faoliyatining past rentabelligi
	iqlimning mo'tadilligi, ishlashga xalaqit qilmasligi	mamlakatdagi ekologik vaziyatning yomonlashishi
CHEKLOVCHI OMILLAR	qabul qiluvchi davlatga kirish uchun viza tartiblarini olishning qiyinligi	mamlakat ichida ish haqining o'sishi
	xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy tanazzulga ta'sir qiluvchi iqtisodiy va boshqa turdagi inqirozlar	mamlakat ichidagi siyosiy barqarorlik
	qabul qiluvchi jamiyat aholisining migrantlarga nisbatan ksenofobiyasi	bandlik imkoniyatlarini kengaytirish
	mentalitet, madaniyat va urf-odatlardagi tubdan farq qilishi	mustahkam ijtimoiy aloqalarning o'rnatilishi
	jinoyatchilikning yuqori darajasi va migrantlar hayoti xavfsizligiga tahdidni ortishi	mehnat migratsiyasi maqsadlarida chiqish uchun viza tartiblarini murakkablashtirish
	ijtimoiy himoyaning mavjud emasligi mehnat va yashash sharoitlarining og'irligi	chet elda ishga kirishning yuqori xarajatlarini mavjudligi

Jadval dissertatsiya muallifi tomonidan ishlab chiqilgan

Tadqiqot ishimizning ushbu bo'limida biz migratsiya jarayonlarining eng muhim omillari kuchaytiruvchi va cheklovchi usullarini aniqlashga xarakat qildik. O'ylaymizki, bu omillarni o'rganish va uni aniq tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini hisobga olgan holda migratsiya sohasida muayyan davlat siyosatini yuritishga ko'mak beradi (3.3.1-jadval).

Bundan tashqari, respublikamizda mehnat migratsiyasi jarayonlariniga ta'sir etuvchi yuqoridagi omillarni sotsiologik taxlili nafaqat bizning davlatimizga, balki boshqa mamlakatlar uchun ham muhim va dolzarb hisoblanib, ko'rsatilgan yoki boshqa turdagi omillarning ahamiyatini bir biriga ta'siri va konsentratsiyasi mehnat migratsiyasi jarayonlarining xarakatlanishi va dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Taklif va xulosalar. Yuqorida keltirilgan tahlillarga asosan, shuni alohida ta'kidlash joizki, shu paytgacha xorijiy davlatlarda o'zbek diasporalari "Uyushma" shaklida tashkil etilmagan. Uyushmada O'zbekistonning davlat organlari, jumladan Tashqi ishlar vazirligining tarkibiy bo'linmalari faol ishtirok etadigan tuzilma shakillanmagan. Bu uyushmaning samarali faoliyati shundan iboratki, unda qabul qiluvchi mamlakatlardagi mehnat muhojirlarning xuquqlarini himoya qiluvchi, ularga ijtimoiy, iqtisodiy ko'mak beruvchi, shu o'rinda millatning qadr qimmatini, sha'nini himoya qiluvchi ishonchli tashkilot o'rinda bo'lishi mumkin. Aynan xorijiy mamlakatda yashayotgan mehnat migrantlari bilan chuqur quyidagi mazmunda ilmiy sotsiologik tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi.

-O'zbekistonlik vatandoshlarni xorijdagi diasporasining sotsial-siyosiy, moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy salohiyatini o'rganish va uni taxlil qilish;

- xorijiy mamlakatlarda O'zbekistonning madaniy muhitini diaspora salohiyatidan foydalangan holda kengaytirish imkoniyati to'g'risida;

-O'zbekiston Respublikasining davlat, jamoat tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi subektlari bilan xorijdagi milliy diasporalar bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan;

- xorijda migrantlar bilan hamkorlikni mustaxkamlash, ularni yagona milliy diasporasini yagona tuzilmaga birlashtirish imkoniyati mavjudligi;

- respublika milliy manfaatlarini va milliy mafkurasini inobatga olgan holda xorijdagi diaspora bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning turlarini aniqlash;

- xorijiy mamlakatlardagi faoliyat to'g'risida O'zbekistonda OAV (gazeta, jurnal, radio, televideniya) vositalari erkinligini ta'minlash (O'zbekiston manfaatlarini himoya qilish maqsadida);

- xorijda "milliy diaspora tuzilmasi" tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlari, moddiy yordam turlarini, shu jumladan ma'naviy ko'makni ham tahlil qilish.

Hulosa o'rinda, xorijda O'zbekistonliklarning diasporasini mamlakat taraqqiyotiga qo'shishi mumkin bo'lgan hissasi, uning salohiyatini namoyon etuvchi demografik, intellektual, iqtisodiy, moliyaviy va sotsial-madaniy resurs sifatida ko'rish mumkin. Xorijdagi diaspora orqali mamlakatning tashqi siyosatini samarali olib borish va xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, jumladan, mehnat migratsiyasi jarayonlarida uchraydigan muhim muommolar, mafkuraviy taxdidlar kabi masalalarini hal qilishda muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси статистика агентлиги маълумоти.2023 йил.
2. Бекмуродов М.Б. Ҳаракатлар стратегияси: жадал ижтимоий психологик тараққиёт ва янгилашни модели // "Психология" илмий журнали. – Тошкент, 2017. – № 2. – Б. 10-15
3. Парманов Ф.Я. Миграция жараёнларини бошқаришда инсон омили/ Диссертация – Т., 2012.
4. Умурузаков Б.Организационно-правовые основы регулирования трудовой миграции в Узбекистане // Халқаро муносабатлар. №2. 2008. 53-б.

5. <https://kun.uz/news/2022/12/13/xorijda-bolib-turgan-ozbekistonlik-migrantlar-soni-malum-qilindi>
6. <https://uza.uz/uz/posts/qozogistonda-qancha-xorizhiy-fuqarolar-ishlayotgani-malum-qilindi>
7. Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси маълумоти.2023й. <https://stat.uz/uz/>
8. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. // Международная миграция населения: Россия и современный мир. Выпуск №3 – М., 1999. Стр. 39.
9. Имомова, Н. А. (2022). МАМЛАКАТИМИЗДА МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ. Academic research in educational sciences, 3(4), 1093-1102.
10. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/05/06/population/>
11. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/un_uzb_Labour_Migration_in_Uzbekistan_rus.pdf